



VIDEVDAD NUSXALARINI O`RGANISHDA LITURGIK

QO`LYOZMALARNING O`RNI (ms 4161 misolida)

Nasriddinov Dilovar Muslixadim o`g`li

Termiz Davlat Universiteti Tarix

fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa kutubxonalarida saqlanayotgan Avesta nusxalarining o`rganilishi, Eron va Hindiston nusxalari o`rtasidagi tafovutlar, Avesta nusxalarining raqamlashtirilishi, manuscript (qo`lyozma) 4161 ning o`rganilishi va uning o`ziga xos xususiyatlari keltirilgan

**Kalit so`zlar:** Andreas nazariyasi, Avesta Raqamlashtirish Markazi, Manuscript (qo`lyozma) 4161, Eroniy qo`lyozmalar, Hindiston nusxalari, Sohrab Rustam Kayumars Jahonbaxsh, K Mazdapur,

Abstract: This article discusses the study of Avesta manuscripts preserved in European libraries, the differences between Iranian and Indian copies, the digitization of Avesta manuscripts, the examination of manuscript 4161, and its distinctive characteristics.

Keywords: Andreas theory, Avesta Digitalization Center, Manuscript 4161, Iranian manuscripts, Indian copies, Sohrab Rustam Kayumars Jahanbakhsh, K. Mazdapur

XVIII asr oxiridan XIX asr oxiriga qadar Hindistondan aniqlangan Avestaning ko`plab qo`lyozmalari Yevropa kutubxonalari (asosan, Parij Milliy kutubxonasi, Kopengagendagi Qirollik kutubxonasi va Londondagi Hindiston idorasi kutubxonasi va



h.k.) ga kirib bordi. Avestaning ushbu qo'lyozmalari orasida Hindistonga jo'natish uchun Eronda yozib tayyorlangan nusxalar, shuningdek, keyinchalik, ma'lum vaqtdan keyin Hindiston va Eron zardushtiy ruhoniylar jamoalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasida Hindistonga kirib borgan qo'lyozmalar mavjud edi. Qizig'i, Eronga sayohat qilgan Vestergard, Braun va Jeksonlar Eronda Avestaning hech qanday qo'lyozmalarini uchratishmaganini ta'kidlagan, ya'ni Avesta qo'lyozmalari yo yo'q qilingan yoki saqlab qolish uchun Hindistonga yuborilgan. Shuning uchun ham Avesta qo'lyozmalarini keng ko'lamda qidirish XIX asrda faqat Hindiston bilan cheklanib qolgan. Ilmiy jamoatchilikda Eronda Avesta qo'lyozmalarining mavjud emasligi haqidagi umumiy qarash XXI asrning boshigacha davom etdi. Yillar davomida avestashunoslarning orasida Geldnerning tadqiqotlari eng aniq va ishonchli manba sifatida qo'llanilgan. Yuqoridagi omillarga ko'ra Avestaning yangi qo'lyozmalariga bo'lgan qiziqish XIX asr oxiridan boshlab deyarli butunlay yuqoldi. "Andreas nazariyasi" (bizning qo'lyozmamiz bilimsiz ruhoniylar tomonidan semit alifbosida yozilgan qadimiyroq nusxasi) ilmiy jamiyatda Avesta qo'lyozmalariga bo'lgan e'tiborsizlikka asosiy sabablardan biri bo'ldi¹.

Andreas nazariyasining rad etilishi va ayniqsa K.Hofmannning XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirgan ilmiy ishlari Avesta nusxalariga bo'lgan qiziqishni yangitdan jonlantirdi. Ba'zi qo'lyozma nusxalarining nashr etilishi, A.Hintze va boshqa olimlarning Hindistonga borib yangi Avesta qo'lyozmalari topish yoki Geldner "Avesta"sidan foydalangan qo'lyozmasini ilmiyligini aniqlash maqsadidagi izlanishlariga turtki bo'ldi. Shunga qaramay, Avesta qo'lyozmalariga bo'lgan ushbu qiziqishlar bu gal ham faqat Hindiston bilan cheklandi. Biroq, 2008-yil K.Mazdapur tomonidan nashr etilgan "Avestaning ayrim yangi qo'lyozmalari" nomli tadqiqoti vaziyatni o'zgartirib yubordi. Olim Eronda aniqlangan Avestaning yevropaliklarga ma'lum bo'lmagan 12 ta qo'lyozmasini taqdim etdi. Ular orasida alohida tavsiflanganlari ham bor edi. Ushbu

¹ "Andreas nazariyasi" (1985).



maqolaning nashr etilishi Avestani tadqiq etishda muhim voqea bo'ldi va 1-marta Erondagi Avesta qo'lyozmalariga qiziqish uyg'otdi².

AVESTA RAQAMLASHTIRSH MARKAZI-bir necha yillar oldin Avestaning barcha mavjud qo'lyozmalarini joylashtirish, raqamlashtirish va online nashr etish loyihasi sifatida yaratilgan. Yana bir odatiy tendensiyadan so'ng, Hindistonda ilk qadamlar qo'yildi. Lekin Mazdapurning maqolasi barchaning e'tiborini Eronga qaratdi. O'sha vaqtdan beri Erondagi ko'plab zardushtiy va zardushtiy bo'lmagan jamoalar va olimlar bilan jadal va izchil hamkorlik natijasida Eronda bir qancha muhim qo'lyozmalar topildi va ularning aksariyati ARM tomonidan raqamlashtirildi. 1700-yilgacha bo'lgan davrda biz bilgan eng ko'p va eng muhim qo'lyozmalar Eronda topilgan qo'lyozmalar bo'lib haqiqiyliги jihatidan hind nusxalaridan ustun turgan

Eroniy qo'lyozmalarining kashf etilishi Avestaning o'rganilishi uchun juda muhim edi. Birinchidan bu qo'lyozmalar ko'p jihatdan (paleografik, orfografik, lingvistik va an'anaviy va b.) hind ekvivalentiga qaraganda konservativdir, shu sababli Avesta matnlarining kelgusi nashrlari uchun ham juda zarurdir. Ikkinchidan Eron qo'lyozmalari XVI-XVII asrlarda Hindistonga doimiy ravishda jo'natilgan va Avesta matnlarining hind tiliga tarjima qilinishiga sezilarli ta'sir qilgan. XVI asrdan hind qo'lyozmalarining holati va yaratilish shartlarini tushunish uchun hind va eroniy qo'lyozmalarni solishtirish zarurdir. Shundagina biz hind uzatilishining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishimiz mumkin. Bundan tashqari Eron qo'lyozmalarining paydo bo'lishi ular arxetipik asl nusxaning ko'proq yoki kamroq ko'chirmalari emas, balki ularda tasvirlangan marosimlarni to'g'ri nishonlash uchun haqiqiy qo'llanma ekanligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra qo'lyozmalar mahallalardagi mahalliy urf odatlarni o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va ularni bajarishga moslashadi. Eron va Hindiston qo'lyozmalarni taqqoslash orqali biz ikki mustaqil marosim an'analari, matnlardagi qiroatlar o'rtasidagi farq va marosim

² K. Mazdapur "Some newly found Avestan manuscripts" 2008-y



harakatlari o'rtasidagi farqlardan xabardor bo'lamiz. Ushbu yangi nazariyalarning paydo bo'lishi zardushtiylik urf odatlariga oid tadqiqotlar uchun yangi eshiklar ochadi, va shu bilan birga Avesta falsafiy metodologiyasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.³

So'nggi yillarda ARM a'zolari Avesta matnlarining Eron qo'lyozmalarini tahlil qilishga e'tabor qaratishmoqda. Ammo bizning sa'y-harakatlarimiz faqat Eronda mavjud bo'lgan Avesta qo'lyozmalarin joylashtirish, raqamlashtirish nashr etish va o'rganish bilan cheklanib qolmaydi. Biz ulkan madaniy merosni asrab-avaylash bilan ham shug'ullanamiz. Ushbu tashkilot bq'zan shaxsiy qo'larda bo'lgan va shu sababli tadqiqot uchun ochiq bo'lmagan va xavf ostida bo'lgan qo'lyozmalarga ham duch keladi. Misol uchu qo'lyozma ms(manuscript)4090 Tiran Rostam Xomasp tomonidan XVIII asr oxirida yozilgan bo'lishiga qaramay, olimga Afsin Sohrabi tomonidan 2012-yilda berilgan. Lekin olimlar K Mazdapurning maslahati bilan uni Yegenagi kutubxonasi (Tehron Eron)ga hadya qiladi. Ammo bir necha oylardan keyin anonym sotuvchi olimlarga Mihraban Anoshagruvan tomonidan yoritilgan eng qadimgi qo'lyozmani sotishga harakat qilgan. ARM a'zolari ushbu kitobni sotib olib va keyinchalik qora bozorlarda sotilib yuqolib ketmasligi uchun ushbu kitobni Tehron Universiteti markaziy kutubxonasiga topshirildi. K Mazdapur va boshqa olimlar tomonidan Eronda saqlanib qolgan Avesta qo'lyozmalarini saqlashga hissa qo'shish maqsadida Eronda Avesta qo'lyozmalarini turkumini yaratishga qaror qildi

QO'LYOZMA (Manuscript MS 4161)

Q'o'lyozma ms 4161 Erondgi safaviylar sulolasi davrida ishlab chiqilgan kodekslarning klassifikatsiyasi hisoblangan: videvdat marosimlarining tavsifiga hisoblangan. Ushbu odatiy qo'lyozma turkumi Avesta matnlaridagi bajariladigan amallar va o'rta fors tilida qizil siyohda marosimlarni bajarish bo'yicha qisqa ko'rsarmalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari forslarda qora siyoh bilan bo'lsada bir qancha qo'shimcha

³ Boyce. Textual Sources for the Study of Zoroastrianism / Ed. and transl. by M.Boyce. Manchester, 1984



ko'rsatmalar mavjud. Uning tashqi xususiyatlari va o'lchovlari Safaviylar davrida yozilgan Eroniy qo'lyozmalari normalariga mos keladi: 35*23.5 sm. Har bir sahifada 20 yoki 21 qator mavjud. Ushbu xususiyatlar ehtimol asl nusxa emadir, balki Denkartning Videvdad mazmunini tavsiflovchi bo'limlari qo'shilishidan keyingi ko'rinish bo'lishi mumkin.

Qo'lyozmaning qachon yaratilganini aniqlashni imkoni yo'q. Ushbu qo'lyozma 1658-yilgacha yozib bo'lingan bo'lishi kerak. Mazdapurning ta'kidlashicha, M Afshar, A Xaeri, S Asilining fikriga ko'ra asarda foydalanilgan qog'oz Isfahoniy qogoz bo'lib, X asr o'rtalaridan keyin ishlab chiqarilmagan va bu Hijratdan keying davrlarga to'g'ri keladi⁴. Shunga ko'ra ushbu qo'lyozma Erondagi eng qadimgi Avesta nusxasi bo'lishi mumkin. Ammo Alberto Cantera ning izlanishlari ushbu natijani tasdiqlay olmadi⁵. Paleografik va Orfografik mulohazalarga ko'ra qo'lyozma taxminan XVII asrning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Ms 4161 ARM tomonidan Sohrab Rustam Kayumars Jahonbaxshdan sotib olingan. Qo'lyozma uning otasi Rustam kutubxonasiga tegishli bo'lgan. U shuningdek mashhur ms 4000 qo'lyozmasining muallifi ham hisoblanadi. Ushbu qo'lyozma Fredon Morzban tomonidan yozilgan eng qadimgi Eron liturgik asari hisoblanib, Tehron Universiteti kutubxonasi tomonidan sotib olingan bo'lib, hozirgi kunda ham shu yerda saqlanadi. Iraj Afshar tomonidan nashr etilgan ms 4000 da Rostam Videvdad nusxasining boshqa bir qo'lyozmasini ham Milliy Kutubxonaga sotgani haqida xabar beradi. Bu xajarlarning ilk qo'lyozmasi deb hisoblanadi (ms 4150 yoki 4160ga o'xshagan). Mobed Mehraban Firouzgariyning A Canteraga bergan ma'lumotlarga ko'ra, uning bobosi jahonbaxsh Rustam Xurusondan Yashtga ko'chib borib, o'sha yerda Mobed Baxromning qizi Zomorodga uylangan. Uning o'g'li Kayumars mashhur Dastur Sahryar Mobed Namdar

⁴ Anquetil-Duperron. Anquetil-Duperron A.H. Zend-Avesta. Ouvrage de Zoroastre. T. Ml. Paris, 1771.

⁵ Cantera. The Avestan manuscript T 46 (Vidēvdād Sāde) of the First Dastur Meherji-rana Library of Navsarī 2008-y



Kayxusrav ning qiziga uylanadi. Ms 4161 ehtimol Rustamga nigoh to`yi sovg`asi sifatida taqdim etilgan ham bo`lishi mumkin.

Bu sinfning Eronda saqlanib qolgan eng qadimiy qo`lyozmalari aka-uka Marzbonlar tomonidan yozilgan nusxalari ham bo`lishi mumkin. Biz Fredon Marzban tomonidan yozilgan ikkita shunday qo`lyozmani bilamiz: ms 4000 1607-yilda yozilgan, hozir Tehron Universiteti kutubxonasida va ms 4025 1622-yilda yozilgan, hozir Parvareshgah Kutubxonasi (Yasht)da, va ikki nusxasi uning ukasi Shahram Marzban tomonidan yozilgan: ms 4010 1608-yili yozilgan, hozir V.Zolfeghari (Yazd) da saqlanmoqda va ms 4030 1623-yili yozilgan, hozir Astane Quddus Radawi Kutubxonasi (Mashhad)da. Shunga qaramay bu turdagi Safaviy qo`lyozmalarining ro`yxati yanada kengaydi

- Ms 4040 Fredon Gopastah tomonidan 163-yilda yozilgan, K.Nikman tasarrufida Mehriban Anoshaguvran tomonidan yozilgan, 4ta yoritilgan qo`lyozma
- Ms 4045, 1635-yilda ko`chirilgan, ARM ga tegishli va Tehron Universiteti kutubxonasida saqlanadi.
- Ms 4050, 1640 yilda ko`chirilgan Tehrondagi majlis Kutubxonasida saqlanmoqda
- Ms 4055, 1645-yilda ko`chirilgan, Kirmondagi Rashid Rustami tasarrufida
- Ms 4060, 1647-yili ko`chirilgan, hozirda Londondagi Britaniya Kutubxonasida
- Ms 4063 Shahram Marzban ning o`g`li Shohmardon Shahram Marzban tomonidan yozilgan, Mashhaddagi Mina Hossyni tasarrufida
- ms 4065, Shahromshoh Jomasp anoshagruvan tomonidan 1658-yili tuzilgan⁶

Bizgacha saqlanib qolgan asarlarni tahlil qiladigan bo`lsak Videvdad qo`lyozmalarini yaratishda eng eng qulay vaqt Abos I va Abbos II ning vafotidan keying qisqa davrlarga to`g`ri keladi. Ya`ni 1587 va 1666-yillar hisoblanadi.

Safaviylar hukmronligi davrida Eron liturgik qo`lyozmalarida saqlanish holati kuzatilgan. U juda katta zarar ko`rgan va bir necha bor qayta tiklangan. Boshida 8 ta va

⁶ Geldner, K F 1886–1996: Avesta. The sacred books of the Parsis Stuttgart



oxiridagi 5 ta, o`rtasidagi 60, 66, 69, 235 va 253 varaqlar yuqolgan. Yuqolgan yoki shikastlangan varaqlar boshqa turdagi zamonaviy varaqlar bilan almashtirilgan va boshqa qo`l bilan yozilgan. Ikki turdagi tiklash bosqichini farqlash mumkin. 1-tur 2-9, 66, 69, 253, 259, 265-267 betlar allaqachon yuqolgan yoki shikastlangan va qayta tiklangan. Keyinchalik 60 va 263-264- betlar ham shikastlangan va boshqa rohib tomonidan qayta tiklangan. Keyingi tiklash bosqichi qog`oz bo`lakchalari bilan bir necha varaqlarning pastki qismiga yopishtirilgan va 60va 263-264-varaqlarni ko`chirgan rohib tomonidan yashirin matndan nusxa olingan. Bundan tashqari 235 varaq uchunchi qo`l tomonidan qayta tiklanganga o`xshaydi. Haqiqiy tuzatish ehtimol qo`lyozmani qayta tiklanishining 2-bosqichida qo`shilgan.

Garchi ushbu qo`lyozma eng qadimiylardan biri bo`lmasada , boshqa nusxalariga nisbatan alohida o`rin kasb etadi. Uning eng diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri shundaki, u Den kardning Videvdatning umumlashtiruvchi mazmuniga mos keladigan betlarni o`z ichiga oladi. Ular keyinchalik ikkinchi qo`l tomonidan qo`shilgan. Bu juda ajoyib: 1-bu Eronda mavjud bo`lgan Den kard parchalarining yagona nusxasi: 2-Denkardning va qo`lyozmaga Den kard nusxalarini qo`shgan nusxa muallifini Avesto matnlaridagi Videvdatni yaxshi tushunganini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. K. Mazdapur "Some newly found Avestan manuscripts" 2008-y
2. Boyce. Textual Sources for the Study of Zoroastrianism / Ed. and transl. by M.Boyce. Manchester, 1984
3. Anquetil-Duperron. Anquetil-Duperron A.H. Zend-Avesta. Ouvrage de Zoroastre. T. Ml. Paris, 1771.
4. Cantera. The Avestan manuscript T 46 (Vīdēvdād Sāde) of the First Dastur Meherji-rana Library of Navsarī 2008-y
5. Geldner, K F 1886–1996: Avesta. The sacred books of the Parsis Stuttgart